

SHAXSNING O'Z INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQRARISH HODISASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik imkoniyatlari xususida nazariy bilimlarni qamrab oladi. Xorij olimlari tomonidan shaxs o'z individual imkoniyatlarini namoyon bo'lishiga doir qarashlarining tahlili keltirilgan. Shuningdek, o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning tavsifnomasi, funksiyalari hamda xarakterli jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini o'zi baholash, salohiyat, o'zini o'zi namoyon qilish, o'zini o'zi anglash, maqsad ko'zlash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ФЕНОМЕНА РЕАЛИЗАЦИИ ИНДИВИДОМ СОБСТВЕННЫХ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Туляганова Гульноза Олимджановна

*Старший преподаватель кафедры «Социальные науки, педагогика и психология»
Ташкентского педиатрического медицинского института*

Аннотация. В статье освещаются теоретические знания о психологических возможностях индивида реализовать свои индивидуальные способности. Представлен анализ взглядов индивида на проявление его индивидуальных способностей зарубежными учеными. Также указаны описание, функции и характерные аспекты реализации их индивидуальных возможностей.

Ключевые слова: личность, реализация собственных индивидуальных возможностей, самооценка, потенциал, самовыражение, самосознание, целеполагание.

THE PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF THE PERSON'S REALIZATION OF HIS INDIVIDUAL OPPORTUNITIES

Tulyaganova Gulnoza Olimjonovna

Senior teacher of the Department of «Social Sciences, Pedagogy and Psychology» of the Tashkent Pediatric Medical Institute

Abstract. The article covers theoretical knowledge about the psychological possibilities of realizing one's individual potential. An analysis of the views of a person on the manifestation of his individual capabilities by foreign scientists is given. Also, the description, functions and characteristic aspects of realizing one's individual capabilities are shown.

Key words: personality, realization of individual potential, self-evaluation, potential, self-expression, self-awareness, goal setting.

Shaxsning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish unda inson o'z imkoniyatlarini namoyon qilish jarayonining oqibati natijasi uning ichki "Men"iga o'tadi. Shunga muvofiq ravishda shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning mohiyati – inson o'z kuchiga bo'lgan ishonchida namoyon bo'ladi. Shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning dastlabki sub'yekti bu insonni bir o'zi, ammo hamjamiyatlar, insonlar, guruhlar, xalqlar ham o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi mumkin, biroq jamoaviy o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish alohida shaxslarni o'z-o'zlarini namoyon qilishidan kelib chiqadi.

Psixologik lug'atda "o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bu insonni o'z g'alar va o'zi tomonidan yuqori bahoga intilishi" deb ta'riflanadi. Mazkur ta'rif ko'rilayotgan tushuncha yuzasidan tor doirada fikr yuritishga olib keladi. Chunki o'zini o'zi baholashni o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida ko'rib chiqish kerak [6].

G.A.Korchagina o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish- shaxsning o'zini o'zi anglashida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning muayyan pozitsiyasini egallash zarurati sifatida boshdan kechirilgan, faoliyatning turli sohalarida muhim kuchlarni taklif qilish uchun uning o'ziga xos turi sifatida belgilaydi [2].

Psixologiya fanida inson o'zini o'zi tutish uslublarini yoki o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish strategiyasini tanlash bilan bog'liq bo'lgan hodisaning faqat tashqi tomoni ko'pincha ko'rib chiqiladi. Biroq, E.N.Nikitin va N.Ye.Xarlamenkova o'z tadqiqotlarida shuni ko'rsatadiki, dastlab odam

allaqachon o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ma'lum bir potentsialga, turli xil strategiyalarga ega. Ular o'zlarining "Shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish fenomeni" asarida har bir insonda hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan uchta o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish strategiyasi - konstruktiv, destruktiv va voz kechish mavjudligini ta'kidlaydilar [5].

V.G.Maralovning fikriga ko'ra, o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish - bu shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter sifatlarini, o'zini tutish va faoliyat usullarini kashf etish va tasdiqlash maqsadida o'zini o'zi rivojlantirish doirasidagi faoliyatning o'ziga xos turi [3].

N.F.Kaluginaning ta'kidlashicha, o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish-bu shaxsning o'ziga xos fazilatlarini, xususiyatlarini va sifatlarini kashf etish va uni o'zi va atrofidagi jamiyatda tasdiqlash uchun o'ziga xos faoliyat [2].

E.P.Nikitin, N.Ye.Xarlamenkovalar tomonidan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning strategiyalaridan biri, "o'zini" kuchaytirish, unga kuch berish yoki kuch va ahamiyatni saqlab qolish usuli deb biladi. O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish -bu shaxs ehtiyojidan kelib chiqqan xatti-harakatni yuqori baholash va o'zini o'zi qadrlash istagi [5].

Mazkur muammo yuzasidan fikr yuritgan ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, shaxsda o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni insonda o'ziga nisbatan qadr-qimmat hissini vujudga keltiradi.

Shaxsning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tushunchasiga nisbatan eng aniq va to'liq izohlangan ta'rif R.Alberti tomonidan ilgari surilib, unga ko'ra, "o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bu o'zining mavjudligini saqlab qolish yoki inson shaxsiy borlig'ini kengaytirish va hayot mazmunini topishdir" [1].

Shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tushunchasiga doir qator ta'riflar tahlillarini izohlashga harakat qildik. Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tushunchasini mualliflik nuqtai nazarida quyidagicha ifodalashga mumkin: "o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bu - shaxs o'zini o'zi adekvat baholash orqali o'zidagi mavjud layoqat, qobiliyatlarini faoliyatlar jarayonida yuzaga chiqara olishidir".

Ma'lumki, o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoniga qarama-qarshi tushuncha o'z imkoniyatlarini namoyon qilishdan voz kechishdir. Mazkur jarayonlar bir-biriga juda o'xshash bo'lib, inson tomonidan ularning har ikkisi ham amalga oshiriladi. Natijada, bu jarayonlar uning "Men"ida ro'y beradi, lekin uning natijasi ham o'z imkoniyatlariga qarama-qarshi bo'ladi.

R. de Charms, Uayt tomonidan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish fenomenini motivatsiya nazariyasi nuqtai nazardan yoritishga harakat qilingan. Unga ko'ra, R. de Charms o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning asosi motiv bilan bog'liqligini aniqlashtirishga harakat qilgan [7]. Uning ta'kidlashicha, tashqi muhit ta'siri, qo'llab-quvvatlashlar jazolar o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish kechinmalarini susaytirib, insonda to'liq qaramlik hissi paydo bo'lishigacha olib kelishi mumkin ekan. Agar inson bu jarayonga qarama-qarshi tura olsa, shunda u har qanday faoliyatdan bahramand bo'lib, o'ziga nisbatan ishonchi ortadi va hokazo. Shuningdek, Uayt o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni kompetentlik bilan birlashtiradi [8].

Xorijning yetakchi olimlari tomonidan shaxs individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish muammosi keng doirada o'rganilgan bo'lib, uning o'ziga xos tavsifnomalari ishlab chiqilgan. Xususan, Ye.P.Nikitin tomonidan shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning asosiy tavsifnomalarini ajratib ko'rsatadi:

I.Fazoviy tavsifnoma. Bu o'zidagi har bir imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga nisbatan harakatda bo'lgan inson faoliyatining ma'lum bir sohasiga taalluqli bo'ladi

II. Energetik yoki quvvatli tavsifnoma. O'z ichiga quyidagilarni oladi:

1.O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga turtki (impuls), o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ichki ehtiyoj: a) umumiy yoki barqaror turtki; b) vaziyatli yoki o'zgaruvchan turtki;

2. O'z individual imkoniyatlari salohiyati – insonning faoliyatga nisbatan qobiliyati, u yoki bu turtkini o'z individual imkoniyatlarini tasdiqlash yo'lida qondirish.

a) umumiy salohiyat – umuman qobiliyatsiz yoki har tomonlama qobiliyatga ega bo'lgan inson xususida fikr yuritiladi;

b) o'ziga xos salohiyat – vaziyatli turtkini o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida qondirish qobiliyati [4].

Ye.P.Nikitinning ta'kidlashicha, shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida insonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar bu:

-o'z individual imkoniyatlarining yetishmovchiligi;

-shaxs o'z individual imkoniyatini ro'yobga chiqarishda salohiyatning yetishmovchiligi;

-shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish turtkisining yetishmasligi.

Shunga muvofiq ravishda shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoniga qator mualliflar tomonidan berilgan tasniflarini ko'rib chiqamiz. O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida maqsadga yo'nalganlik darajasini hisobga olib, uning uchta turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. O'z maqsadlari asosida o'zining individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Bunda o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ichki maqsadga aylanadi. Bu toifadagi imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun maqsadning aniq va yorqin ifodalanganligi, shuning bilan birga ma'lum shaklga egaligi, biroq, juda noaniq va mavhum mazmunga egaligi xarakterlidir. Odatda bunday vaziyatlar insonning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish kuchli darajada turtki bo'lganda lekin uni amalga oshirish uchun hech qanday maxsus salohiyatga ega bo'lmaslik sharoitida vujudga keladi.

2. Maqsadga yo'naltirilgan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Avvalgilardan farqli ravishda mazkur toifadagi inson nafaqat anglangan holda o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni maqsad qilib qo'yadi, shuning bilan birga maqsadni amalga oshirishning yo'llari, usullari va vositalariga ega bo'ladi.

O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni klassifikatsiya bo'yicha ilgari surilgan ta'riflarni tahlil qilishga harakat qildik. Shunga muvofiq qator olimlar tomonidan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning qator klassifikatsiyalari ishlab chiqilgan. Agar o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonini klassifikatsiyalashda ularning maqsadga qaratilganlik darajasiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning uch turini ajratish imkoniyatiga ega bo'lamiz:

1. Birdan-bir maqsadga qaratilgan o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Bu o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda asosiy maqsadga aylanib qoladi. Mazkur tip o'z individual imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun maqsad aniq va aynan belgilangan shaklga ega bo'lishi bilan xarakterlidir. Shuning bilan u mavhum xarakterga ega. U asosan insonning o'z individual imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishda yuqori darajada o'ziga xos salohiyatga ega bo'lmagan vaziyatlarda paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan maqsad ushbu maqsadni amalga oshirishda yorqin namoyon bo'luvchi ustanovka bilan bog'liq emas. Bog'liq bo'lgan holatlarda ham juda nozik aloqadorliklar bilan birlashib, ular mustahkam bo'lmaganliklari uchun boshqalari bilan almashib ketishi va o'zgarishi mumkin.

2. Maqsadga yo'naltirilgan o'z individual imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish. Yuqorida keltirilgan tipdan farqli ravishda inson nafaqat o'z maqsadlarini ro'yobga chiqaradi, balki qaysidir faoliyat sohasida ushbu maqsadni amalga oshirishga, unga erishish yo'lidagi muammolarni turli xil usullar bilan hal etishga harakat qiladi. Bunday qayta namoyon bo'lish boshqa aniq faoliyatdagi maqsad bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, maqsadga yo'nalgan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning ikkita: konservativ va progressiv tiplari mavjud: Konservativ o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, inson o'zi erishgan pozitsiyasini saqlab qolishga intilishi bilan tavsiflanadi. Progressiv o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda tanlangan zina bo'yicha yuqoriga chiqish imkoniyati yoki undanda yuqoriroq pog'onalariga ko'tarilish maqsad qilib olinadi.

3. Maqsadga intilishga qaratilgan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Bu jarayonda o'z oldiga hech qanday maqsad qo'yilmaslik va intilish bo'lmagan holatlar ko'zga tashlanadi. Bunda faqatgina o'zi yoki boshqa insonlar tomonidan ijobiy baholanadigan natijaga erishiladi. Shu orqali o'zi individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi natijaga ega bo'linadi.

Shaxsning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni klassifikatsiyalash jarayonida ular tomonidan amalga oshiriladigan vositalarni asos qilib olinsa, ikkita tipni ajratish mumkin, ya'ni tashqi va ichki. Tashqi o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Bu atama yordamida mavjud predmetlar orqali o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tushuniladi. Bunday predmetlar o'rnida turli qiymatga ega har xil narsalar bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda asosan jonli narsalar ahamiyatli hisoblanadi. Ichki o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Mazkur tipdagi vositalar sifatida eng oddiy narsalar bilan bir qatorda jonli vositalar ham bo'lishi mumkin. Lekin bu vaziyatda ular o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi ob'yekt sifatida namoyon bo'ladilar. Bu yo'l orqali o'zining ichki imkoniyatlarini amalga oshirish shakllanadi.

O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonini klassifikatsiya qilishda uning natijalarini asos sifatida olsak, ikkita tipga ajratish mumkin: shaxsdan oldingi va shaxsiy. Shaxsdan oldingi tipda inson oxir oqibat o'zini biror narsaning qismi emasligini ta'kidlaydi. Shaxsdan oldingi o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning o'zi inklyuziv va tortishuvli kabi ikkita tipga ajratiladi. Inklyuziv tipdagi inson o'zining biron bir butunlikning ajralmas elementi sifatida ta'kidlaydi. Shunga qarmay u o'zini boshqa bir qator elementlar, jismlar qatoridan chiqarmaydi. Bu jarayon shundan iboratki, o'ziga xos bo'lgan yaxlitliklar orasidan yaxshisi ajratib olinadi. Tortishuvchi tipdagi shaxsning o'z individual

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda inson ko'pchilikni tashkil etuvchi insonlardan o'zining zo'rligini isbotlamochi bo'ladi. Shaxsiy tip shaxs nafaqat ko'pchilikni tashkil qiluvchi chegaralangan imkoniyatlar doirasidan, balki insoniy bilish, noyob mikroqism sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tipning vazifasi-xuddi yuqorida ta'kidlab o'tilgan mikroqismni yaratishdan iborat.

O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish klassifikatsiyasida mexanizmlarni asos qilib olsak, uning ikkita tipi vujudga keladi. Unga ko'ra, boshqa insonlardagi "Men" i rad etishi orqali o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va o'zini o'zi anglash, belgilash orqali o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish. Boshqa insonlar "Men" ini rad etish orqali o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida "Men" turli shakllarda namoyon bo'ladi. O'zini o'zi anglash, belgilash orqali o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasida fikr yuritilganda, birinchi navbatda ularning boshqa insonlarni "Men" ini rad etish orqali, ikkinchidan boshqalarning ustidan hukmronlik qilish orqali ularning o'xshash jihatlarini ham e'tibordan chiqarish mumkin emas.

O'zini o'zi anglash orqali o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mexanizimida ham inkor etish akti mavjud. Ko'p hollarda u o'zining emas, balki boshqa "Men" larga yo'naltirilgan bo'ladi. Inson yanada yuksalishi va kattaroq mavqega ega bo'lishi, ko'tarilishi uchun o'zining kechagi holatini ertangi kuni uchun inkor etadi. Tillix o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ma'naviy va axloqiy turlarga ajratgan. Insonlarga xavf solayotgan mavhumlik ularda xavotir turini paydo qiladi. Shu xavotir o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning tarkibiy qismiga aylanib boradi.

A.Alberti va L.Emonsi shaxsdagi o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning quyidagi turlarni ajratib ko'rsatganlar:

O'zini o'zi bosish. Bunday tipdagi insonlarga o'zining salbiy his-tuyg'ularini hayrihohlik ortiga berkitish xos. Ular uchun o'z zimmasiga mas'uliyatni olishi kerak bo'ladigan vaziyatlardan qochish xarakterlidir. Noaniq va kam rivojlangan muloqot shakllarida o'z fikri va adekvat emosional reaksiyalarini yashirish an'anasi mavjud [1].

Agressiv strategiya yoki ustun bo'lgan strategiya. Bu tipga suhbatdosh o'z fikrini tugatmasdan avval javob berish xos: ushbu tip kuchli ovoz toni bilan gapirish, boshqa insonlarga yuqoridan turib qarash, o'z fikrini ochiq bayon etish va boshqalarning fikrini eshita olish, ularning fikrini tanqid qilmasligi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida keltirilgan barcha klassifikatsiyalar shaxsning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonini faqatgina bir tomonlama o'rganib, tavsiflash imkonini beradi. Shunday ekan, bu jarayon ko'p qirrali bo'lgani uchun uni yanada kengroq tasniflash maqsadida turli xil klassifikatsiyalarni o'rganish va ularni o'zaro solishtirib ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tushunchasiga doir ilgari surgan ta'riflarni tahlil qilgan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

1. O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish shaxs o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi boshqarish, nazorat qilish, o'zini o'zi baholash tizimi xususiyatlarini namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

2. Shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularni kelajak hayotlari uchun ilgari surilgan maqsadlari va unga erishish yo'llari bilan izohlanadi.

3. Shaxsning ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatlarini oqilona va samarali tashkil qilish, nazorat qilish va boshqarish, o'zini o'zi tarbiyalash, muvaffaqiyatga intilish, kasbiy faoliyatda yuqori cho'qqi va marralarga erishishda o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алберти Р., Эммонс М. Самоутверждающее поведение. – СПб.: Гуманитарное агентство «Академический проект», 1998. – 188 с.

2. Калугина, Н. Ф. Психологические условия позитивного самоутверждения студентов - будущих журналистов: дис... канд. психолог. наук : 19.00.07/ Наталья Филиповна Калугина – Череповец, 2007. – 181 с.

3. Маралов, В. Г. Основы самопознания и саморазвития / В. Г. Маралов. – М.: «Академия», 2003. – 256 с

4. Никитин Е.П., Девятова С.В., Кезин А.В., Кузнецова Н.И., Купцов В.И., Маркова Л.А, и др. Философия и методология науки: Учебное пособие 1996 место издания Аспект Пресс Москва

5. Никитин Е.П. Харламенкова Н.Е. Феномен человеческого самоутверждения – СПб: Анстения 2000 г 224

6. Психология. Словарь / Под общ. Ред А.Б.Петровского, М.Г.Ярашевского-2-э изд, испр.и доп.-М." Политиздат, 1990-494 с

7. Психология: Биографический библиографический словарь / Под ред. Н. Шихи, Э. Дж. Чепмен, У. А. Конрой. СПб.: Евразия, 1999. 832 с.

8. Хекхаузен, Хайу Мотивация и деятельность - М.: «Педагогика», 1986г. 392 с., 2 том.